

“Akademik bilan suhbat” onlayn loyihasining keyingi mehmoni akademik Abbosxon To’rayev

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda tashkil etilayotgan “Akademik bilan suhbat” onlayn loyihasining keyingi mehmoni O’zR FA akademigi To’rayev Abbosxon Sabirxanovich bo’ladilar.



Onlayn suhbat joriy yil 30-sentyabr kuni soat 15:00da bo’lib o’tadi. Onlayn suhbatda Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar o’quvchilari, yosh olimlar va qiziquvchilar quyidagi havola orqali ishtirok etishlari mumkin:

<https://us02web.zoom.us/j/89703617104?pwd=WkhuS0xHRDRqN09qQ0J0d2FhcHUwQT09>

Konferensiya identifikatori: 897 0361 7104

Parol: 12345

Ma’lumot o’rnida, Abbosxon Turayev bioorganik kimyo sohasida polisaxaridlarni va gidrofil makromolekulyar sistemalarni olish, tibbiy-biologik xususiyatlarini o’rganish va ular asosida yo’naltirilgan ta’sirga ega dori vositalari, belgilangan xususiyatga ega jarrohlik jihozlarini yaratish bo'yicha matab yaratgan olimdir. U polisaxaridlarni modifikatsiyalashning yangi qonuniyatları, gidrofil makromolekulyar sistemalar sintezi, mazkur sistemalarning tirik organizmlar bilan o’zaro ta’sir mexanizmlarini o’rganishdagi chuqr fundamental izlanishlari bilan bioorganik kimyo sohasiga katta hissa qo’shgan olim sifatida tanilgan.